O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 5-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO'LAJAK JURNALIST TALABALARNI FANLARARO BOG'LIQLIKDA KASBGA YO'NALTIRILGAN INGLIZ TILIGA O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Giyasova Azizaxon Muratovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
E-mail:azizakhongiyasova@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunda jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida chet tili, xususan, ingliz tilini egallash darajasi alohida o'rin tutadi. Biroq an'anaviy umumiy ingliz tili (General English) o'qitish metodikasi bo'lajak jurnalistlarning sohaga oid maxsus kompetensiyalarini (faktcheking, intervyu olish, media-matn yaratish, xalqaro axborot agentliklari materiallari bilan ishlash) shakllantirishda yetarli samaradorlikni ko'rsatmayapti. Ushbu maqolada kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP — English for Specific Purposes) va Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL — Content and Language Integrated Learning) yondashuvlari jurnalistika ta'limida fanlararo bog'liqlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: ESP, fanlararo bog'liqlik, CLIL, kasbiy kompetensiya, chet tili, jurnalistika talabalari.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОМУ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-ЖУРНАЛИСТОВ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация. *В настоящее время уровень владения иностранным языком, в частности английским, занимает особое место в профессиональной подготовке студентов направления «Журналистика». Однако традиционная методика преподавания общего английского языка (General English) не обеспечивает достаточной эффективности в формировании профессиональных компетенций будущих журналистов, таких как фактчекинг, проведение интервью, создание медиатекстов и работа с материалами международных информационных агентств. В данной статье анализируются теоретические и практические основы обеспечения междисциплинарной интеграции в журналистском образовании на основе подходов английского языка для специальных целей (ESP — English for Specific Purposes) и предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL — Content and Language Integrated Learning).*

Ключевые слова: *ESP, междисциплинарная интеграция, CLIL, профессиональная компетенция, иностранный язык, студенты-журналисты.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS FOR TEACHING PROFESSION-ORIENTED ENGLISH TO FUTURE JOURNALIST STUDENTS WITHIN AN INTERDISCIPLINARY CONTEXT

Annotation. *At present, proficiency in a foreign language, particularly English, occupies an important place in the professional training of students majoring in Journalism. However, the traditional methodology of teaching General English does not demonstrate sufficient effectiveness in developing the professional competencies of future journalists, including fact-checking, conducting interviews, creating media texts, and working with materials from international news agencies. This article analyzes the theoretical and practical foundations of ensuring interdisciplinary integration in journalism education through the approaches of English for Specific Purposes (ESP) and Content and Language Integrated Learning (CLIL).*

Keywords: *ESP, interdisciplinary integration, CLIL, professional competence, foreign language, journalism students.*

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda chet tilini sohaga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan o‘qitish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va chet tillarini puxta o‘zlashtirgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash markaziy o‘rin egallamoqda. “Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish” ga alohida e’tibor qaratilmoqda” [1]. Bu esa, o‘z navbatida, sohaga yo‘naltirilgan xorijiy tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish va har bir sohada fundamental tadqiqot ishlarini olib borishning alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois jurnalistika yo‘nalishi talabalariga umumiy ingliz tili bilan bir qatorda ularning kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan til kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) o‘quvchilarning akademik yoki kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan til o‘rgatish yondashuvi bo‘lib, unda til grammatikasi, leksikasi, nutqiy janrlari va kommunikativ vazifalari ma’lum soha kontekstida o‘rganiladi. Hutchinson va Waters ESPni “bu o‘quvchilar ingliz tilini nima uchun o‘rganishi kerak?”

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

degan savoldan boshlanadigan kurs loyihalash yondashuvi sifatida belgilagan. Shu ma'noda jurnalistika talabalari uchun ESP faqat professional lug'atni yodlash emas, balki yangilik yozuvi, reportaj, press-reliz, intervyu, tahrir va mediaetik muhokamalarda ishlatiladigan tilni amaliy vazifalar orqali egallashni nazarda tutadi.

Tadqiqotning maqsadi — jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini fanlararo bog'liqlikda o'qitishning nazariy asoslarini tizimlashtirish va ular asosida pedagogik model taklif etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

ESP nazariyasida asosiy o'rin ehtiyojlar tahliliga tegishli. Hutchinson va Waters ehtiyojlar tahlilini kurs loyihalashning boshlang'ich bosqichi sifatida ko'rsatib, unda o'quvchining maqsadli kasbiy muhitda nima qilishi kerakligi va qanday o'rganishi samarali bo'lishi aniqlanadi. Bu yondashuv jurnalistika yo'nalishida talabaning kelajakdagi faoliyati — xalqaro yangiliklarni o'qish, ingliz tilidagi manbalar bilan ishlash, xorijiy muxbirlar bilan muloqot qilish va ko'p tilli media muhitida ishlash — asosida dars mazmunini belgilash imkonini beradi.

Ilmiy-nazariy jihatdan bu masala "ESP (English for Specific Purposes) + EAP (English for Academic Purposes) + media savodxonlik + CLIL" kesishmasida ko'riladi. ESP an'anasi o'quvchi ehtiyojini tahlil qilish, kasbiy janr va diskurslarni o'rgatish, autentik materiallarga tayangan holda natijaga yo'naltirilgan kurs qurish tamoyillarini beradi. Bu yo'nalishda T.Dadli-Evans va M.Sent-Jon ESP kursini loyihalashda ehtiyoj tahlili, maqsadli diskurs, materiallar dizayni va baholash mexanizmlarini markaziy omil deb ko'rsatadi [2]. Ehtiyoj tahlili tarkibida mualliflar maqsadli vaziyat tahlili (target situation analysis — talaba kelajakda tildan qanday vaziyatlarda foydalanadi), joriy holat tahlili (present situation analysis — u hozir nimani biladi) va o'quv ehtiyojlari tahlilini (learning needs analysis — u qanday o'rganishni afzal ko'radi) farqlaydi.

Hyland ESPning uch asosiy tamoyilini ajratib ko'rsatadi: til tahliliga e'tibor, kontekstga moslik va kasbiy hamjamiyatga xos kommunikativ hodisalarni dars

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jarayonida takrorlash. Jurnalistika kontekstida bu tamoyillar yangilik matni, reportaj, tahririyat maqolasi, press-reliz va ijtimoiy tarmoq postlari kabi janrlarning til xususiyatlarini o‘rganishni talab qiladi.

Shuningdek, ESP darslari real kasbiy vaziyatlarga yaqin autentik materiallar va mazmunli kommunikativ vazifalarga tayanishi kerak. Jurnalistika tilida kommunikatsiya “vazifa” orqali tabiiy shakllanadi: intervyu ssenariysini tuzish, press-konferensiya simulyatsiyasi, tezkor xabar yozish, faktcheking bo‘yicha guruhli tekshiruv, ijtimoiy tarmoq uchun kontent reja yaratish, podkast uchun intro va outro matnlarini tayyorlash shular jumlasidandir. Bunday vazifalar talabaning motivatsiyasini oshiradi, chunki u natijani real mahsulot sifatida ko‘radi. R.Ellis vazifani “ma’noga yo‘naltirilgan, aniq kommunikativ natijaga ega va real hayotdagi til faoliyatiga o‘xshash ish rejasi” sifatida ta’riflaydi [3], jurnalistik topshiriqlar bu mezonlarga to‘liq javob beradi.

Jurnalistika sohasiga oid ESP tadqiqotlari ham kasbiy materiallar, real kommunikativ vazifalar, vazifa asosidagi o‘qitish (TBLT) va janr asosidagi yondashuvlarning yetarli darajada integratsiya qilinmasligi muammosini qayd etadi. Shu bilan birga, ESP kurslari o‘quvchining umumiy til darajasini rivojlantirish bilan birga uning sohaviy leksikasi va kommunikativ ko‘nikmalarini ham shakllantirishi kerak.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-tahliliy metodologiyaga asoslangan bo‘lib, unda ESP va CLIL nazariyasi, jurnalistika ta’limi va kasbiy kommunikatsiya adabiyotlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tavsifiy tahlil, mazmun tahlili va komparativ yondashuvdan foydalanilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida jurnalistika yo‘nalishi talabalarini kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘rgatishning beshta asosiy nazariy komponenti aniqlandi.

MUHOKAMA

Jurnalistika yo‘nalishi uchun ESP o‘qitishning CLIL yondoshuviga asoslangan holda o‘qitishning samaradorligi til va kasb mazmunining sun’iy bog‘lanishi bilan emas, balki ularning organik integratsiyasi bilan belgilanadi. Talaba ingliz tilini faqat darsda emas, balki real media vazifalarida — manba tahlili, tahrir, reportaj tayyorlash, xalqaro auditoriya bilan muloqotda — qo‘llaganda kasbiy kompetensiyasi shakllanadi.

Tadqiqot natijalari ESP dasturlarida quyidagi tamoyillarga tayanish zarurligini ko‘rsatadi:

Tamoyil	Jurnalistika yo‘nalishidagi amaliy ifodasi
Ehtiyojlar tahlili	Talabaning kelajakdagi kasbiy vazifalari asosida dars mazmuni belgilanadi
Autentiklik	Real yangilik matnlari, intervyular, press-relizlar va media materiallari qo‘llanadi
Janr asosidagi o‘qitish	Yangilik, reportaj, tahririyat maqolasi va press-reliz janrlari tahlil qilinadi
Vazifa asosidagi o‘qitish	Talabalar ingliz tilida yangilik yozish, tahrirlash va taqdim etish vazifalarini bajaradi
Tanqidiy savodxonlik	Manba ishonchliligi, fakt va fikr, mediaetika masalalari muhokama qilinadi
O‘quvchi markazlilik	Talabaning mavjud bilimi, til darajasi va kasbiy maqsadlari hisobga olinadi

Bunday yondashuv jurnalistika talabasining til bilimini statik bilim sifatida emas, kasbiy faoliyatda qo‘llanadigan resurs sifatida rivojlantiradi. ESPning CLIL yondoshuviga asoslanib o‘qitilishining asosiy maqsadi ham talabaga uning o‘qish yoki

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kasbiy faoliyatida kerak bo‘ladigan ingliz tilining maxsus ko‘rinishini egallatishdan iborat.

XULOSA

Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘rgatish umumiy til o‘rgatishning oddiy davomi emas, balki kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi yaxlit pedagogik tizimdir. Uning nazariy asosini ehtiyojlar tahlili, janr va diskurs tahlili, kommunikativ-o‘qitish, vazifa asosidagi o‘qitish hamda tanqidiy media savodxonligi tashkil etadi.

Jurnalistika yo‘nalishi uchun samarali ESP kursi real media vazifalariga asoslanishi, kasbiy leksikani kontekstda o‘rgatishi, talabaning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi va xalqaro kommunikativ vaziyatlarga tayyorlashi kerak. Kelgusidagi tadqiqotlar jurnalistika talabalari uchun ESP dasturining samaradorligini empirik jihatdan o‘lchash, raqamli media muhitida qo‘llaniladigan materiallarni ishlab chiqish va baholash mezonlarini takomillashtirish yo‘nalishida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa shuki, jurnalistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini fanlararo bog‘liqlikda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari quyidagi g‘oyalar majmuiga tayanadi:

- ESP va ehtiyoj tahliliga asoslangan kurs dizayni;
- kompetensiyaviy yondashuv va kasbiy kommunikativ kompetensiya modeli;
- CLIL orqali til va jurnalistika mazmunini integratsiyalash;
- kommunikativ va vazifaga asoslangan metodlar orqali real kasbiy vazifalarni tashkil etish;
- janrga asoslangan pedagogika va diskurs tahlili;
- media savodxonlik, faktcheking va raqamli kompetensiyalarni til o‘qitish bilan uyg‘unlashtirish;
- natijaviy faoliyatga asoslangan baholash va portfolio yondashuvi.

Bu nazariy poydevor jurnalistika talabalarini global axborot makonida samarali faoliyat yurita oladigan, ingliz tilidagi kasbiy diskursni tushunadigan va yaratadigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu nazariy poydevorning amaldagi samaradorligi ko‘p jihatdan talabaning tilni idrok etish, eslab qolish va nutqda qo‘llash mexanizmlariga, ya’ni psixolingvistik omillarga bog‘liq. Keyingi paragrafda aynan shu omillar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. https://nrm.uz/contentf?doc=602358&products=1vsezakonodatelstvouzbekistaa

2. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.

3. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.

4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning -centred approach. Cambridge University [cambridge][assets.cambridge]

5. Hyland, K. (2022). English for Specific Purposes: What is it and where is it taking us? ESP Today, 10(2), 202–220.[esptodayjournal]

6. Anthony, L. (2018). Introducing English for Specific Purposes. Routledge.[revues.imist]

7. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.[jurnal.fkip-uwgm.ac]

8. Johns, A. M., & Dudley-Evans, T. (1991). English for Specific Purposes: International in scope, specific in purpose. *TESOL Quarterly, 25*(2), 297–314.[cambridge]

9. English for Specific Purposes at the Academy of Journalism and Communication, Vietnam: A mixed-methods study of teaching methods, needs analysis, and pedagogical effectiveness. Zenodo.[zenodo][zenodo]

10. Aligning Sustainable Development Goals into English for Journalism.[jurnal.fkip-uwgm.ac]

11. Leon, C. (2019). Practical aspects of teaching English to journalism students. Analele Universității “Ovidius” Constanța, 30(1), 104–114.[litere.univ-ovidius]

12. Simulation-Based Project Learning in ESP: The effectiveness of a student-developed digital journalism platform. (2025).[e-journal.hamzanwadi.ac]